

# **Proceedings of International Congress on “Multidisciplinary Studies in Education and Applied Sciences”**

Hosted Online from Ottawa Canada on December 10th, 2022.

[www.conferencezone.org](http://www.conferencezone.org)

---

## **TAHLIKADAGI AXBOROT**

Rasuljonov Muhammadsodiq

Namangan viloyati Norin tumani 7-maktab o'quvchisi

rasuljonovss.uzb@gmail.com

### **Annotatsiya:**

Maqolada O'zbekistonning raqamlı dunyodagi o'rni, uning bu olamdagı ma'lumotlarining xavfsizlilik darajasi, ularni ximoya qilishning zaifligi va uning bir yechimi, yoshlarni axborot bilimlarini oshirish to'g'risida fikr yurutilgan.

**Kalit so'zlar:** Kiber olam, raqamlı texnologiyalar, xaker, veb-sayt, dasturiy ta'minot, ish o'rni, rag'batlash, oylik-maosh.

## **УЗБЕКИСТАН В КИБЕР-МИРЕ**

Ученик школы № 7 Норинского района

Наманганской области Расулжанов мухаммадсадык

rasuljonovss.uzb@gmail.com

**Аннотация:** В статье рассматривается роль Узбекистана в цифровом мире, уровень безопасности его информации в этом мире, уязвимость его защиты и ее решение, повышение информативности молодежи.

**Ключевые слова:** Кибер-мир, цифровые технологии, хакер, веб-сайт, программное обеспечение, рабочее место, продвижение по службе, зарплата.

## **UZBEKISTAN IN THE CYBER WORLD**

Muhammadsodiq Rasuljonov,

Student of school number7 in Narin district of Namangan region

rasuljonovss.uzb@gmail.com

### **Annotation**

The article analyzes the role of Uzbekistan in the digital world, the level of security of its information in this world, the vulnerability of its protection and its solution, increasing the informativeness of young people.

# **Proceedings of International Congress on “Multidisciplinary Studies in Education and Applied Sciences”**

Hosted Online from Ottawa Canada on December 10th, 2022.

[www.conferencezone.org](http://www.conferencezone.org)

**Keywords:** Cyber world, digital technologies, hacker, website, software, workplace, promotion, salary.

“Barqaror rivojlanishga erishish uchun biz raqamli bilimlarni va axborot texnologiyalarini chuqur o‘zlashtirishimiz kerak, bu esa bizga har tomonlama rivojlanishga erishish uchun eng qisqa yo‘ldan borishimizga imkon beradi. Bugungi dunyoda raqamli texnologiyalar barcha sohalarda hal qiluvchi rol o‘ynamoqda.”

O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.Mirziyoyev

Ma’lumki, bugungi kunda raqamli texnologiyalarga bo’lgan talab va taklif ortib bormoqda. Shu asnoda bizning vatanimizda ham davlatimiz rahbari tomonidan 2020-yil 24-yanvar kuni Oliy Majlis oldida nutq so’zlab unda 2020-yilni “Ilma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantitish yili” deb e’lon qildi. Bu mamlakatimizni raqamli dunyoga bosgan ilk qadami bo’ldi. Shu qisqa davr ichida davlatimizda komputer savodiga bo’lgan qiziqish va imkoniyatlar keng ochilib, prezidentimiz tomonidan davlat byudjetidan misli ko’rilmagan mablag’ ajratilib berildi. Bunga asosiy sabab butun dunyo qatori bizning mamlakatimizda ham “covid-19” virusi natijasida sodir bo’lgan pandemiyada barcha ta’lim va boshqa tashkilotlarni masofaviy usuliga o’tish bo’ldi. Aynan shu davr bizning raqamli dunyoda juda qoloq va savodsiz ekanimizni yaqqol ko’rsata oldi. Na ota-onam zamonaviy gadjetlardan to’g’ri va samarali foydalana olar, va na 7yil davlat maktabida informatika fanidan “5 baho”ga o’qigan o’quvchi o’z o’qituvchisi bilan ijtimoiy tarmoqlar orqali bog’lanar, va holanki barcha ustozlar ham bu mobil qurulmalarni tushuna olmasdi. Bu esa bir qator vaqtini behudaga sarflash uchun paydo qilingan platformalarni ommalashashishiga, unda ko’plab yoshlarni asir bo’lib o’zlarini qimmatli vaqtlarini shunchaki manoga ega bo’lmagan kontentlarga sariflashiga sabab bo’ldi. Shu qisqa davr bizning yoshlarimiz ongidan milliylikni sug’urib chiqardi, barcha aytilgan va ommaga ko’z-ko’z qilingan vatanga muhabbat faqat zabonda qolaverdi, birontasidan bir amal chiqqa olmadi. Biroq ayrim barmoq bilan sanagulik insonlarni bu olamga o’zlarining foydali mabalari bilan kirib bir qancha yoshlarni haq yo’lga qaytara oldi. Afsuski shunga qaramay hali hanuz bu ko’rsatgichni kata qismini be-maqsadlar egallashi achinarli hol albatta.

# **Proceedings of International Congress on “Multidisciplinary Studies in Education and Applied Sciences”**

Hosted Online from Ottawa Canada on December 10th, 2022.

[www.conferencezone.org](http://www.conferencezone.org)

Bizning O’zbekistonimizda IT-sohasini shu 2yil oralig’ida jadal rivojlanishi natijasida bu olamga to’laqonli ishonishimiz kata xatolardan biri edi. Savodsizlik qilib tanimagan va hatto biz ko’rmagan inson bilan masofaviy savdo-sotiq qilish, mablag’larni noqonuniy yechib olinishlarga qaramay yana kiber jinoyatchilarni yolg’onlariga aldanib qolishimiz achinarli holat albatta. Ta’limda yoshlarga shunchaki ular qiziqmaydigan Word, Exel, Power Pointlarda ishlashni 5-sinfdan 11-sinfgacha o’rgatishlariga ham shunchaki ko’z yumdik. Axborot fanida Yangi o’quv metodikalarini, kitoblarini yangilash zarur edi, biroq buni o’quvchilarga o’rgatish uchun bilimli o’qituvchi kerakligini inobatga olmadik. Axir qanday qilib o’qituvchini o’zi faqat Word, Exellarni tushunib turib yoshlarga HTML, CSS, Python, Kiber xavfsizlikdan dars bera oladi, bu huddi “ To’vuqqa parvoz et, axir qanotlaring borku!” degandek gap-ku. Ya’ni davlat faqat va faqat manbalarni yangilashga kirishdi va shuni qildi, biroq asl maqsadni amalga oshiruvchi ustozlarni ikkinchi o’ringa qo’ydi.



Davlatimiz kiber xavfsizlik uchun katta mablag’ ajratib ularni tehnologiya va gadgetlarini zamonaviy va eng so’ngi rusumi bo’lishiga e’tiborini qaratti-yu, ulardan foydalana oladigan kadrlarni ikkinchi o’ringa qo’ydi. MarshGolden tomonidan buzulgan davlat sayti ham ularni shunchaki ishiga loqaytsizligini va yetarli bilimga ega emasligini yaqqol ko’rsatti. Biroq 15-yoshli bola shunchaki bir noutbuki bilan butun davlatni, va holanki “Senatni” saytiga o’zining logosini joylashtirib kiber xavfsizlikka salomlarini qoldirishgan. Undan bir necha yillar ilgari HackGolden tomonida “Kundalik.com” davlat saytini “admin-paneli” olib istagan o’quvchisini bahosini istagancha almashtira olgan, va buni deyarli hech kim sezmagani. Aslida bu sohada xavfsizlik uchun ishlayapman deyotganlarni dunyoning kuchli mutaxassislari bilan hamkorlikda o’qitilimaganiga, shunchaki

# **Proceedings of International Congress on “Multidisciplinary Studies in Education and Applied Sciences”**

Hosted Online from Ottawa Canada on December 10th, 2022.

[www.conferencezone.org](http://www.conferencezone.org)

ko’z yumulganiga “Vauu” deyish kerak. Ularga davlat necha ming AQSH dollorlari to’lab, bu soha rivojlanayapti desayu, shunchaki ijtimoiy tarmoq orqali eng sodda hakkerlik hujumini o’rganib davlatni saytiga hakkerlarni kirishi, “Rivojlanish faqat zabonda” degan fikrga olib borib qo’yyap



Haqiqatdan ham mamlakatimiz biron fanni yangilayotganda, faqat manba va ma’lumotini emas, balki o’qituvchining bilmini o’zgartirishi kerak. Kiber olamga kirgan va unda har on faol ekanmiz, xavfsizlikni ta’minlash uchun yaroqli kadrlarni ularni yoshlariga emas balki bilimlariga qarab qo’yishimiz darkor. Misol uchun shu HackGolden “Kundalik.com”da istaganicha baholarini almashtirayotgan bir-pallada, buning xavsizligi uchun o’tirgan 30-40yoshli odam hech narsaga e’tibor ham qilmagan. Aqlni yoshga qarab emas, balki boshga qarab o’lchashni unutmaslik kerak. Chet elda yurgan ko’plab O’zbek mutaxassislariga yo’l va imkoniyatlar ochib berib, kerak bo’lsa “Iltimos” deb, kiber olamdagи о’rnimizni oshirishimiz kerak. Yangi yosh bilimli dasturchilarga barcha

# **Proceedings of International Congress on “Multidisciplinary Studies in Education and Applied Sciences”**

Hosted Online from Ottawa Canada on December 10th, 2022.

[www.conferencezone.org](http://www.conferencezone.org)

imkoniyatlarni ochib berish kerak, kiber xavfsizlikni xatosini yuziga ko'rsatib qo'yanligi uchun uni o'z gadjetlaridan mahrum etib, shu yo'sinda taziyq o'tkazmasdan. Bu "Kiber olam"ga bizni befarq bo'lishimiz, shunchaki qoloq va zaif bo'lishimizga sabab bo'la oladi holos, bularni tubdan o'rganish barchamiz uchun muhim va shartdir!

## **Foydalanilgan adabiyotlar**

- 1) 2020-yil 24-yanvar kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga joriy yil va kelgusidagi mamlakatimiz taraqqiyotining eng ustuvor vazifalari to'g'risida
- 2) "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi loyihalarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 29-avgustdagি PQ-3245-son qarorini bajarish yuzasidan hamda zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda axborot va jamoat xavfsizligi, shuningdek huquq-tartibotni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni kuchaytirish, "Xavfsiz shahar" yagona apparat-dasturiy kompleksini yaratish loyihasining o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qarori.
- 3) <https://www.youtube.com/@cyber102>
- 4) <http://fayllar.org>
- 5) [www.lex.uz](http://www.lex.uz)